Poetonimlarda milliy va hududiy mentalitetning aks etishi

Umidabonu Tohirovna Jovbo‘riyeva –
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti Filologiya va san’at fakulteti 231 - amaliy filologiya guruhi talabasi.
E-mail: ujovboriyeva@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada badiiy adabiyotlarda poetonimlarning milliy va hududiy mentalitetni aks ettirishidagi o‘rni yozuvchi Tog‘ay Murodning “Yulduzlar mangu yonadi” asari asosida tahlil etiladi.
Kalit so‘zlar: Onomastika, poetonim, mentalitet, til, tarixiy metod, tasviriy metod, qiyosiy-chog‘ishtirma metod.

Аннотация: В данной статье анализируется роль поэтонимов в литературных произведениях как средства отражения национального и регионального менталитета на примере произведения писателя Тогая Мурода «Звёзды горят вечно».
Ключевые слова: Ономастика, поэтонимия, менталитет, язык, исторический метод, описательный метод, сравнительный метод.

Annotation: This article analyzes the role of poetonyms in literary works in reflecting national and regional mentality based on the work of the writer Togay Murod "The Stars Burn Forever".
Keywords: Onomastics, poetonyms, mentality, language, historical method, descriptive method, comparative method.

KIRISH VA DOLZARBLIGI.

Til - madaniyatning ko‘zgusi bo‘lib, unda nafaqat insonni o‘rab olgan real borliq, uning real yashash sharoitlari, balki xalqning ijtimoiy o‘zini o‘zi anglashi, uning mentaliteti, milliy xarakteri, hayot tarzi, an’analari, urf-odatlari, axloqi, qadriyatlar yig‘indisi, dunyoqarashi ham aks etadi[1].

Lingvokulturologiya sohasida salmoqli ish olib borgan olimlardan biri Edvard Xirsh shunday deydi: “Tilni mukammal egallash uchun milliy madaniyatga mos keladigan turli madaniy ramzlar haqida chuqur bilimga ega bo‘lish lozim”[1]. Turli madaniy ramzlar esa badiiy adabiyotda namoyon bo‘ladi. Yozuvchilar millatning

madaniyatini, yashash sharoitini, hududiy mentaliteti, urf-odat va an'analarini o'z qahramonlari orqali yoritib beradi. Har bir asarda qahramonlarga nom berishda yoki til birliklari va onomastik birliklardan foydalanishda nom ortiga ma'lum bir ma'no yashiriladi. Ana shunday birliklarni aniqlash, ma'nolarni ochib berish, maxsus tadqiqot o'tkazish bugungi kundagi dolzarb masalalardandir.

METODLAR VA O'RGANISH DARAJASI.

Maqolada Surxon vohasining yozuvchi farzandi Tog'ay Murodning "Yulduzlar mangu yonadi" asari asosida poetonimlarning qo'llanilishi o'rganiladi. Poetonimlarni o'rganishda bir necha metodlaridan foydalanildi: tarixiy metod, tasviriy metod, qiyosiy-chog'ishtirma metod va hakazolar[3].

Poetonimlar tadqiqi bo'yicha rus olimlaridan O.N. Altuxova o'z tadqiqotini olib borgan. U V. Pelevin asarlaridagi nomlar tizimini (poetonimlarni) o'rganadi va ularning badiiy olamlarni bog'lovchi makrokontekstual funksiyalarini ochib beradi[2]. S.I.Zinin, N.V.Podolskaya, E.B.Magazanik va L.I.Roizenzon kabi dunyo tilshunos olimlari "Poetik onomastika" bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borganlar.

TADQIQOT NATIJALARI.

Tog'ay Murod asarlarida Surxon vohasiga xos elementlar ko'plab uchraydi. Yozuvchi vohasining go'zalligini, tog'lari-yu soylarini, o'lkasining bahorini o'zgacha uslubda ta'rif etadi. Shu bilan birgalikda, asarlarida odamlarining samimiyligi, g'amxo'r, soddadil, mehnatkash, mard, polvon insonlar ekanligini yoritib beradi. Surxondaryo viloyatida kurashlar, ko'pkari o'yinlari ko'p o'tkaziladi. Bu o'yinlarda polvonlar kuch sinashadilar. "Yulduzlar mangu yonadi" asarida mard, samimiy, birso'zli inson sifatida Bo'ri polvon hayoti tasvirlanadi.

Asarda bir qator onomastik birliklar qo'llangan bo'lib, ular orqali Surxon vohasi koloriti, urf-odatlar, an'analar uyg'unligi yoritilib beriladi. "Yulduzlar mangu yonadi" qissasida qatnashgan ayrim antroponim, toponimlar orqali milliy va hududiy mentalitetning aks etishini ko'rib chiqsak.

Asar bosh qahramonlari – Bo‘ri polvon, Nasim polvon hisoblanadi.

Bo‘ri ramziy etalon hisoblanadi va turli madaniyatlarda turlicha talqin etiladi. Binobarin, turkiy xalqlarning lingvomadaniyatida bo‘ri – jasurlik, rus lingvomadaniyatida esa vaxshiylik etaloni bo‘lib keladi[1]. Bu fikrdan kelib chiqib, Bo‘ri polvon obrazi orqali Surxon xalqining jasur ekanligi tasvirlangan, milliy madaniyat aks etgan.

Surxon xalqida har bir er kishining ismiga polvon so‘zi qo‘shib aytiladi. Ismlardagi faol indikatorlardan biri bu “polvon”dir. Polvonlik bu oriyat timsoli. Mentalitetda polvonlik el orasidagi hurmat, mardlikni ifodalaydi. Shu bilan birgalikda, qissa davomida besh-olti yosh chamasidagi bolalar ham kurash tushadilar, ularning ismi Shukur va Ermat bo‘lib, kattalar tomonidan ismiga “polvon” so‘zi qo‘shib aytiladi.

“...- Otingiz nimaydi, polvon? - dedi. - Shukuy! — E, yashang, Shukur polvon! Bolalar, manovi Shukur polvon bilan olishadigan mard bulsa o‘rtaga chiqsin! Telpagi quloqlarini tushirib olmish bir bola chiqib keldi. Ketidan otasi ovoz birdi: - Polvon bova, manovi Ermat polvonni bir sinab ko‘ring!..”[4].

Shu sababli, bu so‘zdan asarda vohaning milliyligini, mardlik, jasurlik tuyg‘ularini ochib berish uchun keng foydalanilgan.

Qissada bir qator joy nomlari keltirilib o‘tilgan. Bular, Termiz, Sariosiyo, Denov, Jarqo‘rg‘on kabi tuman va shaharlardan polvonlar Boysunga kelib kurash tushishgan va tumanlarining sha’nini himoya qilganlar.

“...Sariosiyodagi o‘sha davrada Bo‘ri polvonga teng topilishi qiyin bo‘ldi.

Davra egalari talvasada qoldi.

Bordi-yu, Bo‘ri polvonga talabgor bo‘lmasa, sariosiyoliklar denovliklardan qoyil bo‘ldi, bo‘ladi...”[4].

Polvonlar o‘z qishlog‘i yoki tumani nomidan davraga tushganda, ular shunchaki sport musobaqasida emas, balki o‘z tuprog‘ining shon-sharafi va oriyati uchun kurashadilar. Polvonlarning bir elning oriyati uchun kurashishi hududiy birlik va

jamoaviylik mentalitetini ifodalaydi.

Surxondaryo viloyati hududida bir necha urug‘ vakillari istiqomat qiladi. Qissada ham yozuvchi bir necha urug‘ vakillarini tilga olganini ko‘rishimiz mumkin.

“...Or-nomus uchun kurash bolalikdan boshlanadi!

Qishloq odamlari olchin, tog‘chi, parito‘p, qovchin, go‘rhov, yuz...deya atalmish urug‘-aymoqlarga bo‘linib olishadi.

Bordi-yu, chetdan polvonlar kelgan bo‘lsa-chi? Unda, qishloq polvonlari birlashib, mehmon polvonlar bilan kurashadi…”[4].

Ushbu urug‘ nomlari orqali Surxon vohasi aholisining tarixiy ildizlari naqadar chuqur ekanligini, ularning umrboqiy saqlanishi kerakligini, bizning milliy o‘zligimizni yodimizga solib turishi kerakligini anglab olamiz.

XULOSALAR.

Xulos qilib shuni aytishimiz mumkinki, yozuvchilar shunkaki nom, shunchaki ism tanlashmaydi. Ular millaylikni, urf-odatlarni, an’analarni, qadim tarixni o‘zida jamlay olgan nomlardan foydalanishadi. Yuqorida aytib o‘tganimizdek, nomlarda butun bir mentaliteti, dunyoqarashi yotadi.

Tog‘ay Murod asarda onomastik birliklar ortiga millatning hayot tarzi, axloqiy mezonlari va dunyoqarashini muvaffaqiyatli yashira olgan. Nomlardan shunchaki leksik birlik emas, balki Surxon vohasining o‘ziga xos madaniyatini, qadriyatlarini hamda sotsiomadaniy qiyofasini ochib beruvchi vosita sifatida mahorat bilan foydalangan. Bu kabi poetonimlarning lingvokulturologik xususiyatlarini yoritib berish o‘zbek tilshunosligida nafaqat badiiy matn tahlilini boyitadi, balki milliy madaniyat ramzlarini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Usmonova Sh. Lingvokulturologiya (Darslik) - T.: 2019. – 248 b.
2. Toshova G. T. Badiiy matnda qo‘llangan onomastik nomlarning funksional-stilistik xususiyatlari. Lingvistika: o‘zbek tili magistr darajasi uchun diss. -

Termiz.: 2022.

3. Urganch davlat universiteti. O‘zbek filologiyasi kafedrasi. Onomastika fanidan o‘quv – uslubiy majmua. – Urganch: 2022. – 92 b.
4. Tog‘ay Murod. Yulduzlar mangu yonadi. -Toshkent: “Ziyouz.com” kutubxonasi, – 59 b.
5. https://ziyonet.uz/ru
6. https://www.wikipedia.org/